RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV USULLARNING O‘RNI

Mamarasulov S.O.,GDPI stajyor o‘qituvchisi
e-mail: sobirjon5464@gmail.com

Аннотация: в данной статье освещаются вопросы повышения профессионального педагогического мастерства учителей в условиях цифровой образовательной среды, анализируется передовой зарубежный опыт, современные педагогические подходы и перспективы их адаптации к системе образования Узбекистана. Также рассмотрено значение непрерывного профессионального развития, проанализированы эффективные подходы к укреплению потенциала учителя с помощью цифровых технологий. На основе анализа

зарубежного опыта предложены важные рекомендации и предложения для узбекской системы образования.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, цифровая образовательная среда, непрерывное развитие, зарубежный опыт, профессиональная компетенция, инновационные подходы, качество образования, современные методы.

Annotation: this article highlights the issues of enhancing teachers’ professional pedagogical skills in a digital learning environment, analyzes advanced foreign experience, modern pedagogical approaches, and the prospects for their adaptation to the education system of Uzbekistan. It also discusses the importance of continuous professional development and examines effective strategies for strengthening teachers’ capacity through digital technologies. Based on the analysis of international practices, key recommendations and proposals have been presented for improving Uzbekistan’s education system.

Keywords: pedagogical skills, digital learning environment, continuous development, foreign experience, professional competence, innovative approaches, education quality, modern methods.

XXI asrda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar pedagog kadrlardan yangicha fikrlash, raqamli vositalardan foydalanish va o‘z kasbiy mahoratini doimiy rivojlantirib borishni talab qilmoqda. Bugungi kunda raqamli ta’lim muhiti — bu faqat texnik vositalar bilan cheklanmay, balki o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish va o‘qituvchining metodik yondoshuvini zamonaviylashtirish imkoniyatini beruvchi keng imkoniyatli platformadir.

Pedagoglarning raqamli savodxonligi va interaktiv usullarni qo‘llash ko‘nikmalari ularning kasbiy mahoratini yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, onlayn va gibrid ta’lim shakllarining ommalashuvi bu masalani dolzarb etib qo‘ymoqda. Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida pedagogik mahoratni rivojlantirishda interaktiv usullarning o‘rni, ularning afzalliklari hamda real ta’limiy amaliyotdagi qo‘llanilishiga e’tibor qaratiladi.

Raqamli ta’limning imkoniyatlari va dolzarbligi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Endilikda o‘quv jarayoni an’anaviy usullarga tayanib qolmay, balki turli onlayn platformalar, raqamli resurslar va masofaviy ta’lim vositalari orqali tashkil etilmoqda. Bunday sharoitda o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini mukammal bilish, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, ta’limiy platformalarda ishlay olish, o‘quvchini raqamli muhitda faol ishtirok etishga unday olish kabi qator ko‘nikmalar talab etiladi.

Raqamli ta’lim muhiti quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

O‘quv materiallariga doimiy kirish imkoniyati: Ta’lim platformalarida materiallar arxivlanadi va istalgan vaqtda foydalanish mumkin.

Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos tarzda mashg‘ulotlar tashkil etish mumkin.

Interaktivlik: Multimedia vositalari, testlar, viktorinalar va onlayn muhokamalar orqali darslarni qiziqarli qilish mumkin.

Baholash tizimining shaffofligi: Onlayn testlar, topshiriqlar va reyting tizimlari orqali bilimlar aniqlik bilan baholanadi.

Shu bilan birga, pandemiya davrida butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimining tezkor raqamlashtirilishi o‘qituvchilarning raqamli savodxonligiga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Ko‘plab o‘quvchilar Zoom, Google Meet, Moodle, Edmodo kabi platformalar orqali ta’lim olishdi. Bu esa o‘qituvchilardan nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki onlayn darsni samarali tashkil qilish, o‘quvchini virtual muhitda faollashtira olish, raqamli etikaga rioya qilish kabi yangi qobiliyatlarni ham talab qildi.

Shunday holatlar ta’limda raqamli transformatsiyaning nafaqat texnologik, balki metodik va psixologik yondoshuvlarni ham o‘zgartirayotganini ko‘rsatadi. Bugungi pedagog raqamli vositalardan o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik mahoratni rivojlantirishda interaktiv usullarning o‘rni.

Raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchidan nafaqat axborot yetkazish, balki o‘quvchini dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb etish bo‘yicha puxta strategiyalarni qo‘llay olishini talab etadi. Bu esa interaktiv metodlardan keng foydalanishni zarur qiladi.

Ta’kidlab o‘tish kerakki, taniqli pedagog olima T.S. Sultonova ta’kidlashicha, "interaktiv metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqotni yo‘lga qo‘yish, bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda asosiy omillardan biridir."

Shuningdek, rus olimi V.V. Guzeev o‘z tadqiqotlarida shunday fikr bildiradi: "Ta’lim samaradorligi o‘quv jarayonining interaktivlik darajasi bilan bevosita bog‘liq. Texnologiyalar imkon bergan har qanday vosita o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirishi kerak."

Quyidagi interaktiv metodlar raqamli ta’limda pedagogik mahoratni kuchaytirishda samarali hisoblanadi: Case-study (vaziyatli tahlil): Real vaziyatlar asosida muammoni hal qilishga yo‘naltiriladi. Onlayn viktorinalar (Quizizz, Kahoot): Bilimlarni mustahkamlash va qiziqarli shaklda baholash imkonini beradi.

- Muammoli savollar asosida dars: O‘quvchini izlanishga undaydi.Jamboard, Padlet kabi onlayn platformalarda brainstorming: Yaratuvchanlikni oshiradi. Role-play (rol o‘ynash): Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda foydalidir.

O‘zbekistonlik pedagog olim A. Yo‘ldoshev esa shunday deydi: "Bugungi zamonaviy darsda asosiy e’tibor o‘quvchini faoliyatga jalb etish, uning fikrlash doirasini kengaytirish va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga qaratilishi kerak."

Demak, interaktiv metodlar — nafaqat darsni jonlantiruvchi vosita, balki o‘qituvchining kasbiy mahoratini yangi bosqichga olib chiqadigan kuchli pedagogik strategiyadir.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish.

Zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan xorijiy ilg‘or tajribalarning puxta o‘rganilishi va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirib qo‘llashga bog‘liq. Xususan, pedagogik mahoratni oshirishda rivojlangan davlatlar tajribasi, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy rivojlantirish mexanizmlari diqqatga sazovor. Singapurda esa “Teaching as Leadership” yondoshuvi asosida

pedagoglar muntazam baholanadi va yetakchi ustozlar boshqalarni o‘qitish bilan shug‘ullanadi. Bu yerda “pedagog yetakchilik” konsepsiyasi orqali har bir o‘qituvchi o‘z maktabida innovatsion tashabbuslarni ilgari suradi.

Buyuk Britaniyada “Continuing Professional Development (CPD)” tizimi orqali o‘qituvchilar o‘zining har bir yillik faoliyatida kasbiy o‘sish rejasini tuzadi va amalga oshiradi. Onlayn kurslar, mentorlik, dars kuzatuvlari va malaka oshirish modullari orqali o‘qituvchining faoliyati izchil rivojlanadi.

AQSHda esa o‘qituvchilarni baholashda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv platformalar, dars yozuvlari va tahlil metodlari keng qo‘llaniladi. Har bir pedagog faoliyati natijaviylik va samaradorlik orqali baholanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun bu tajribalarning quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

- O‘qituvchining uzluksiz rivojlanishi uchun individual reja asosida ishlashi;
- Kasbiy hamjamiyatlar orqali tajriba almashinuvi;
- Texnologik savodxonlikni oshirish uchun raqamli kurslar joriy etilishi;
- Ilg‘or o‘qituvchilarni rag‘batlantirish va ularni boshqalar uchun mentor sifatida jalb qilish.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogik mahorat faqatgina malaka oshirish kurslari bilan emas, balki o‘qituvchining doimiy izlanishi, amaliy faoliyatga yangilik kiritish intilishi va kasbiy jamoalarda faol ishtirok etishi orqali rivojlanadi.

Raqamli ta’lim muhiti va ilg‘or xorijiy tajribalar pedagogik mahoratni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash va interaktiv metodlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning faoliyatga bo‘lgan yondoshuvini o‘zgartiradi va ularni yanada mustaqil fikr yuritishga undaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimlaridagi o‘qituvchining malakasini oshirishga doir ilg‘or yondoshuvlar nafaqat pedagogning o‘zini, balki butun ta’lim jarayonini sifatli o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Finlyandiya, Singapur, Buyuk Britaniya va AQSH kabi davlatlarning ta’lim tizimlari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu davlatlarning tajribalari O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashishi va pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishda foydali bo‘ladi. O‘qituvchilarni doimiy ravishda rivojlantirish, ularni yangi metodlar va texnologiyalar bilan tanishtirish, hamda ilg‘or pedagoglar bilan tajriba almashinuvi tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim qadamlaridir.

Shunday qilib, o‘qituvchining kasbiy mahoratiga doimiy ravishda yondashish, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish, interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash ta’limni sifatli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova, M. (2021). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Tuxliyev, N. (2022). Raqamli ta’lim va pedagogik innovatsiyalar. Samarqand: Ziyo press.
3. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.